



FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI

III-JILD

PHILOSOPHY AND FAITH:
PAST, PRESENT AND FUTURE

International Scientific and Practical Conference
PROCEEDINGS
Volume - 3

ФИЛОСОФИЯ И ВЕРА:
ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ И БУДУЩЕЕ

Международная научно-практическая конференция
МАТЕРИАЛЫ
Том - 3

23-24-aprel, 2025

**“FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
TASHKILIY QO'MITASI**

Tashkiliy qo'mita raisi:

G'.I. Muxamedov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori.

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

B.X. Eshchanov

S.B. Qorayev

D.B. Axmadjanov

O.A. Ortiqov

S.X. Gayupova

R.A. Ikramov

L.K. Axatov

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor.

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor.

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'lim boshlig'i.

Gumanitar fanlar fakulteti dekani.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri.

Tashkiliy qo'mita ishchi guruhi:

Madalimov T.A.

Jo'rayev H.A.

Koshanova N.M.

Tashmetov T.X.

Karshiyev Sh.S.

Neshitov P.Yu.

Xaytmetov R.K.

Muhammadiyev L.G.

Nafasov A.K.

Eronov S.Q.

Saidusmanov B.A.

Usmanov A.X.

Sunnatov T.R.

Tuganova L.Dj.

Toshtemirov R.A.

Ilmurodova f.Sh.

Yo'ldoshev U.X.

Abdullayeva D.N.

Sa'dullayeva M.X.

Xolmo'minov G.B.

Miraxmedova Sh.N.

Yakubov X.M.

Imomova U.I.

Tadjibayeva R.O.

Umarova Sh.B.

Yursinboyev J.M.

Nurmanov Sh.J.

Abdullayev T.S.

Maxkamov D.Sh.

Ilyosov Sh.B.

Burliyev U.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi

ISLOM TA'LIMOTI. ISLOM ILOHIYOTI, UNING ASOSIY AQIDALARI

Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich

CHDPU Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi t.f.f.d.(PhD)

Email: baxrom.said@mail.ru

Siyovush Xikmatulloyev Jumanazar o'g'li

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti

Tojik tili va adabiyoti yo'nalishi 2 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada islom dinining hozirgi kundagi o'rni haqida ma'lumot beradi. Islom tarixi boy bo'lib, u ilm-fan, san'atva madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan davrlarga ega edi — ayniqsa O'rta asrlarda yoki Zaharavon davrida musulmon olimlari matematikadan tibbiyotgacha ko'p sohalarda yutuqlarga erishdilar. Islom dini butun dunyoda taxminan 1,9 milliard odam tomonidan e'tirof etiladi va bu uni eng katta dinlardan biri qiladi. Islom turli madaniyatlar bilan bog'liq holda rivojlangan va ko'plab tafsirlar hamda oqimlarga ega (masalan, Sunniylar va Shi'alar).

Kalit so'zlar: Din, namoz, masjid, sunniy, shi'a, ta'limot, kitob, islom falsafasi, urf-odat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о современном положении ислама. Ислам имеет богатую историю, включающую периоды, когда он вносил большой вклад в развитие науки, искусства и культуры, особенно в Средние века или в период Захараван, когда мусульманские ученые совершили прорывы во многих областях — от математики до медицины. Ислам исповедуют около 1,9 миллиарда человек во всем мире, что делает его одной из крупнейших религий. Ислам развивался в связи с различными культурами и имеет множество толкований и сект (например, сунниты и шииты).

Ключевые слова: Религия, молитва, мечеть, сунниты, шииты, учение, книга, исламская философия, традиция.

Abstract: This article provides information about the role of Islam in the modern world. Islam has a rich history, with periods when it contributed greatly to the development of science, art, and culture - especially in the Middle Ages or during the Zaharawan period, when Muslim scholars made achievements in many fields, from mathematics to medicine. Islam is professed by approximately 1.9 billion people worldwide, making it one of the largest religions. Islam has developed in connection with different cultures and has many interpretations and sects (for example, Sunni and Shia).

Keywords: Religion, prayer, mosque, Sunni, Shia, teachings, book, Islamic philosophy, tradition.

"Din" so'zi odatda biror bir diniy tizim, e'tiqod yoki amaliyotlarni ifodalaydi. Diniy tizimlar ko'pincha odamlarning hayoti, axloqi va ruhiyati haqida muhim qoidalar va qadriyatlarni belgilaydi. Dinlar turli xil bo'lishi mumkin: monoteistik (bir Xudoga ishonish) yoki politeistik (ko'p Xudolarga ishonish), hamda ularning har biri o'ziga xos marosimlar, kitoblar va ta'limotlarga ega. Dunyo dinlari insoniyat tarixida muhim rol o'ynagan va turli madaniyatlar, urf-odatlar hamda ijtimoiy hayotga ta'sir ko'rsatgan. Dunyoda minglab dinlar mavjud bo'lsa-da, ulardan ba'zilari eng keng tarqalgan va tanilgan hisoblanadi. Dunyoda ko'p dinlar bor ular:

1. Xristianlik: Bu din asosan Iso Masihning ta'limotlariga asoslangan. Xristianlik dunyodagi eng katta dini hisoblanadi va uning asosiy kitobi Injil (Yangi Ahd)dir.
2. Islom: Muhammad payg'ambarning ta'limotlariga asoslangan bu din Qur'onni o'zining muqaddas kitobi sifatida qabul qiladi. Islomda beshta ustun bor: shahodat, namoz, zakat, roza va haj.
3. Hindizm: Bu qadimiy diniy an'analar to'plami bo'lib, Hindistonda rivojlangan. Hinduizmda reinkarnatsiya (yana tug'ilish), karma (amal natijasi) kabi tushunchalar muhim ahamiyatga ega.
4. Buddizm: Siddhartha Gautama ("Buddha") tomonidan tashkil etilgan buddizm ruhiy uyg'onish va ichki tinchlikka erishishga yo'naltirilgan dindir. Uning asosi to'rtta haqiqatan iboratdir.
5. Yahudiylilik: Bu monoteistik diniy an'anadir bo'lib, Yahudi xalqining tarixi bilan chambarchas bog'liqdir; Tanax (Qadimgi Ahddan iborat) yahudlarning muqaddas kitobidir.
6. Shintoizm: Yaponiyaning asli dini bo'lib, tabiatchilikni hurmat qilish va ajdodlarga e'tibor berishni o'z ichiga oladi.
7. Sikxizm: 15-asrda Hindistonda Guru Nanak tomonidan yaratilgan sikxizm bir xil xudo fikrini ilgari suradi va gurularning yozuvlarini qabul qiladi.

"Islom" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "tinchlik", "sulh" yoki "taslim bo'lish" ma'nolarini anglatadi. Islom dini, Allohga (Xudo) taslim bo'lish va Uning buyruqlariga rioya qilish orqali tinchlikka erishishni ta'kidlaydi. Islomning asosiy tamoyillari — imon keltirish, ibodat qilish, zakot berish, roza tutish va haj amalga oshirishdir. Bu tamoyillar musulmonlarning hayoti va ularning ijtimoiy munosabatlarini shakllantiradi. Islomshunoslik qomusiy lug'atida: "Din aqida, shariat va tariqat bobidagi ilohiy ko'rsatmalarning to'plamidir". Aqida so'zi arab. "aqd" o'zagidan yasalgan bir narsani ikkinchisiga mahkam bog'lash ma'nosini anglatadi. Ko'plik shakli - aqid, musulmon kishini ma'lum narsalar bilan mahkam bog'lab turadigan e'tiqodlar majmuyidir. Islomning asosiy aqidasi - "Allohdan o'zga

sig'iniladigan (iloh) yo'q! Muhammad Allohning rasulidir"(kalimayi tavhid). 7 aqidani o'z ichiga olgan 'minlikning batafsil ifodasi quyidagicha bo'lishi mumkin: Allohga, Uning farishtalariga, rasullariga, kitoblariga, Qadarga (taqdir, qismat, yozmish, al-qada' va-l-qadar) ya'ni yaxshilik va yomonlik Alloh tomonidan taqdirda belgilangan, "peshonaga yozilgan iga, Oxirat kuniga va o'limdan keyin qayta tirilishga ishonmoq. Islomda farz qilib qo'yilgan asosiy shartlardan biri namoz bo'lib, kecha-kunduzda besh mahal (bomdod, peshin, asr, shom, xufton) namozlarini o'qish farz hisoblanadi. Namozni kishi bir o'zi yoki jamoa bo'lib o'qishi mumkin, lekin juma kuni peshin namozi masjidda o'qilishi ma'qullanadi. Erkaklar va ayollar alohida jamoa bo'lib namoz o'qiydilar, er va xotin jamoatdan alohida bo'lgan holat bundan mustasno. Aqoid - diniy e'tiqodning nazariy qismi, uning ma'naviy asosi, aqidalar yig'indisidir. U dinga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shariat islom dinining amaliy qismidir. U ibodat (usul ad-din) (namoz, ro'za, zakot, haj) va muomalotga bo'linadi. Muomalot - fuqarolik huquqi munosabatlarini o'rganadigan bo'lim hisoblanadi. Uqubot, deb nomlangan bo'lim islom huquqining jinoyat va jazo masalalarini o'rganadi. Ramazon ro'zasini vaqtida ado qilish ham islomda farz qilingan amallardandir. Dastlab ro'za tutish Muhammad payg'ambar Madinaga hijrat qilganidan bir yarim yil o'tgach, 624-yildan boshlangan. 30 kun mobaynida sog'lom, balog'at yoshidagi musulmonlarga farz qilingan. Ro'za bu tong otgandan to quyosh botguncha yemoq, ichmoq, jinsiy aloqani, g'iybatni, chaqimchilikni va hokazo harom qilingan narsalarni niyat bilan tark qilmoqdir. Bu falsafa asosan Qur'on, hadis (Payg'ambar Muhammadning so'zlari va amallari) va islomiy ilm-fan an'analari tayangan holda rivojlangan. Islom falsafasining ko'p jihatlari bor, lekin ularning eng muhimlarini quyidagicha ajratish mumkin:

- 1. Tavhid (Yagona Alloh):** Islomda Allohning yagona ekanligi ta'limoti markaziy o'rin tutadi. Tawhid tushunchasi islomiy tafakkurning asosini tashkil etadi.
- 2. Ilm:** Islomda bilim olish juda muhimdir. "O'qit" deb buyurgan birinchi oyat orqali bilimga qiziqish va uni tarqatish zarurligi ta'kidlanadi.
- 3. Falsafa va din:** O'rta asrlarda musulmon olimlari, masalan Al-Farobi, Ibn Sino (Avicena), Ibn Rushd (Averroes) kabi faylasuflar dinni mantiqiy asoslarda izohlashga harakat qilishgan.
- 4. Etika:** Islom etikasi inson xulq-atvorini tartibga soluvchi qoidalarni belgilaydi, bu esa adolat, rahm-shafqat va to'g'rilik kabi qadriyatlarni o'z ichiga oladi.
- 5. Koinot haqida tasavvurlar:** Musulmon faylasuflar koinotni yaratgan Alloh haqida chuqur fikr yuritdilar hamda mavjudotlarning mohiyatini o'rganishga intildilar.
- 6. Hayot ma'nosi: Isloqda hayot ma'nosi oxirat bilan chambarchas bog'liqdir:** bu dunyodagi harakatlarimiz oxiratdagi mukofot yoki jazoga olib kelishi mumkinligini anglatadi.

7. Sufizm: Sufi oqimi ruhiyatni rivojlantirishga e'tibor beradi va ilohiyot bilan bevosita aloqada bo'lish uchun ichki tajribaga urg'u beradi.

Islom falsafasi tarix davomida turli madaniyatlar bilan aralashib, yangi yo'nalishlarga ega bo'lgan; shuningdek G'arb falsafasi bilan ham munosabatda bo'lgan davrlarda zamonaviy g'oyalar paydo bo'lgan. Islomning asosiy manbasi bo'lmish Qur'oni karim VII asrda nozil bo'lgan bo'lsa-da, Islom ta'limotiga ko'ra, bu din, Yer yuzida insoniyat paydo bo'libdiki, butun bashariyatga nozil qilingan. Muhammad alayhissalom avvalgi payg'ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar - Nabi va Rasul deb tan olinadi. Imon so'zining lug'aviy ma'nosi ishonmoq, tasdiqlamoq bo'lib, istilohda esa "La ilaha illallohu Muhammadur rasululloh" (Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad uning payg'ambari) kalimasini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlash demakdir. Imonning Yetti sharti bor: Allohning borligi va birligiga imon keltirish, ya'ni Allohning barcha ismlari va sifatlariga imon keltirish. Farishtalarning borligiga imon keltirish.

Alloh taolo insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish uchun payg'ambarlar yuborgan. Qur'onda 25 payg'ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg'ambarlarning umumiy soni 124 ming ekanligi bayon qilingan. "Qur'on" - arabcha "qara'a" (o'qimoq) fe'lidan olingan. Qur'on suralardan iborat. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyatlarni o'z ichiga oladi. Qur'onda jami 114 ta sura mavjud. Oyatlar soni esa, Qur'on matnlarini taqsimlashning turli yo'llariga ko'ra, 6204 ta, 6232 ta, hatto, 6666 tagacha belgilangan.

XULOSA

Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda ijtimoiy adolat qaror topib, madaniy merosimiz, milliy va diniy qadriyatlar rivoji uchun imkoniyatlar yaratildi. Muhimi, ko'hna tariximizga munosabat tubdan o'zgarib, uning ma'naviy-ruhiy ildizlaridan biri Islom dini asoslari to'g'ri talqin etilmoqda. Mustaqillikdan keyin vatanimizning ilmiy, madaniy, ma'naviy va diniy tarixini chuqur tadqiq etishga keng yo'l ochilganidan so'ng mamlakatimizda hadislarni o'rganish bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirildi. Ushbu maqola hozirgi Islom dinini yanada kutarish, maqsadida yozildi. Biz bilamiz, Islom dini jahon miqyosida eng yosh dinlardan biridir. Hozirgi kunda islom diniga davlatimiz rahbari farmonlar berib, uning rivojlanishiga kata hissa qo'shib kelmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlar: "Biz musulmon dini haqida gapirganda, avvalo, Alloh va uning rasulini, o'zimizga ruhan yaqin bo'lgan ulug' allomalarimiz, ulug' imomlarimizni tasavvur qilamiz. Mana shu qutlug' zaminimizda tug'ilib voyaga yetgan, muborak nomlarini butun islom dunyosi cheksiz ehtirom bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy. Xoja Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Zamaxshariy kabi piri komillarimizni nazarda tutamiz. Ma'naviy hayotimizni mana shu ulug' nomlar bilan bog'laymiz."

REFERENCES

1. I.A. Karimov. "Alloh qalbimizda, yuragimizda" – T.:1999
2. I. Azimov. "Islom va hozirgi zamon" – T.:1992
3. A. Men. "Istoriya religion" – M.:1994
4. Z.M. Islomov, N.A Muhamedov, F.A. Sindarova. "Dinshunoslik" – T.:2016
5. Sh.B. Jumayeva. "Dinshunoslik" – T.:2016
6. Abduganievich S. B. DEVELOPMENT OF THE RAILWAY AND AUTOMOBILE NETWORK OF UZBEKISTAN IN THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY (1945-1990) //Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. – 2025. – T. 3. – №. 2. – С. 276-280.
7. Саидусманов Б. ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДА АВТОМОБИЛЬ ТРАНСПОРТИ ТИЗИМИНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШ ТАРИХИ (1945-1990) //TAMADDUN NURI JURNALI. – 2025. – Т. 1. – №. 64. – С. 337-339.
8. Саидусманов Б. А. ЎЗБЕКИСТОНДА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРИХИ (XX-АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДА ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 7. – С. 72-74.

UNING KELIB CHIQISHI, ASOSIY E'TIQODLARI	
64. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Yulduz Ashurova Erkinovna, Maftuna Abdumalikova Sobir qizi ISLOM DINI TARIXI VA MOHIYATI	227
65. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Siyovush Xikmatulloyev Jumanazar o'g'li ISLOM TA'LIMOTI. ISLOM ILOHIYOTI, UNING ASOSIY AQIDALARI	233
66. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Hadicha Rozmatova Azamat qizi Rayhona Jangirova Mansurbek qizi YOSHLARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH VA UNGA OID SIYOSAT	238
67. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Zumrad Shomurodova Gulimboy qizi MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING DINIY QARASHLARI	241
68. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Dilafruz Movlonova Ne'matullaevna YOSHLARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH VA UNGA OID SIYOSAT	245
69. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Sardor Davlatov Aamovich Samira Shorahimova Xurshed qizi YOSHLARDA TA'LIMIY VA TANQIDIY TAFAKKUR TUSUNCHALARI	248
70. Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Gulsanam Nematova Furqatovna ABDULLA AVLONIY - MA'RIFATPARVARLIK VA ADABIY MEROS	251
71. Райхона Чамолитдонова БАЪЗЕ МАСЪАЛАҲОИ УСЛУБИВУ БАДЕЙ ДАР ЭҶОДИЁТИ ШОИРИ ЗУЛЛИСОҲАЙН - ТУРДӢ	254
72. Сарвиноз Расулова ИНФОРМАЦИОННЫЕ ВОЙНЫ	259
73. Sitora Tulavbayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI MADANIY VA MA'NAVIY TARAQQIYOT	263
74. Feruza Azimboyeva Egambergan qizi Uyg'un Abdulhaqov Botir o'g'li DINSHUNOSLIK: TA'LIM VA TADQIQOT METODLARI	268
75. Sevinch Jurakulova Olim qizi Umida Abdumalikova Abdumalikova MILLATLAR VA DINLARARO BAG'RIKENGLIK: FALSAFIY TAHLIL	273
76. Сабрина Мамадисмонова ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В КИТАЕ	278
77. Асем Абдуллаева ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ФРАНЦИИ	282
78. Арайлым Ермуханова Шералиевна НЕПРЕРЫВНОСТЬ И СВОЕОБРАЗИЕ ПОНЯТИЯ КОММУНИКАЦИИ И ИНФОРМАЦИИ	286
79. Арайлым Ермуханова Шералиевна УГРОЗЫ И ОПАСНОСТИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ.	290
80. Абзалбек Жаксылыков МЕДИАГРАМОТНОСТЬ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ: КЛЮЧЕВЫЕ НАВЫКИ ДЛЯ КРИТИЧЕСКОГО ВОСПРИЯТИЯ ИНФОРМАЦИИ	294